



Xalq amaliy san'ati.

Dialogik matn.



TILAME



Fan- O'zbek tili
O'qituvchi- Kamaliddinova
Nigora Sirajiddinovna

REJA:

1

- «Naqsh» so‘zining ma’nosi

2

- Usta Shirin Murodov

3

- Amaliy san’at (hunarmandchilik) muzeyi

4

- Dialogik matnlar bilan ishlash



Foydalanish uchun so‘z va so‘z birikmalari: san’atkor, o‘ymakorlik, duradgorlik, san’at turlari, ganch ustasi, zargarlik, naqqoshlik san’ati.

Naqsh

- Ustoz, naqsh degani nima?
- «Naqsh» arabcha so‘z bo‘lib, tasvir, gul ma’nolarini anglatadi. U elementlari ma’lum tartibda takrorlanadigan qush, hayvon, o‘simliklar, geometrik shakllar va boshqalarning ma’lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir.

- Naqshlar qanday turlarga bo‘linadi?
- Naqshlar mazmuniga ko‘ra o‘simliksimon, geometrik naqshlarga, gulli, guruh, ramziy va boshqa turlarga bo‘linadi.
- Men oq matoga naqshlar chizib ipak iplar bilan ustidan tikib chiqaman. Bunday kashta tikishni buvimdan o‘rganganman. Naqsh haqida ma’lumot bergeningiz uchun rahmat.





TIIAME

**Amaliy
san'at
turlari**



TIIAME

Usta Shirin Murodov

O‘zbek me’morchiligining
shuhrati butun jahonga tanilgan.
Bunda o‘z kasbi tufayli tanilgan
iste’dod sohibi usta Shirin
Murodovning ham hissasi katta.
Kasbga bo‘lgan mehr-muhabbat,
tinimsiz mehnat uni elga tanitdi.

Uning otasi usta Murod va
bobosi usta Nosir Buxoroning
mohir ganchkorlaridan bo‘lishgan.
Usta Shirin 14 yoshida yetim qolib,
amakisi, mashhur ganchkor usta
Hayot qo‘lida ta’lim oldi.

Mustaqil usta sifatida Karmana (hozirgi Navoiy)dagi saroyni bezashda ishtirok etib tanildi. Qadim Buxoroning ko‘rkam yodgorligi Sitorayi Mohi Xosanining Oq zali bezagi usta Shirinning me’morchilik mahorati kamolga yetganini namoyish etdi.

Usta Shirin ma’muriy binolarni ganchkorlik naqshlari bilan bezadi. Ko‘pgina arxitektura yodgorliklarini ta’mirlashda faol qatnashdi. O‘zbekiston va Turkmaniston qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasi xonalari usta Shirin tomonidan bezatildi.





Toshkent kuranti, Navoiy nomini olgan adabiyot muzeyi, Muqimiy teatri va boshqa ko‘pgina binolardagi ganch o‘ymakorligining nafis naqshlari usta Shirinning sermashaqqat ijodiy mehnati natijasidir.

U Alisher Navoiy nomidagi teatrning Buxoro zali bezagi uchun Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Samarqand ta’mirlovchilar maktabida, Toshkent qurilish san’ati bilim yurtida, P.Benkov nomli respublika badiiy bilim yurtida ko‘p yillar o‘zbek xalq me’morchiligi sirlaridan o‘quvchilarga saboq berdi.



TIAAME

Lug‘at

me'morchilik - зодчество, архитектура

iste'dod sohibi - обладатель таланта

ganchkor - мастер резьбы по ганчу

mahorat - высокое мастерство

yodgorlik - памятник, реликвия

kamolga yetmoq - достигать

совершенства

o‘ymakorlik - резьба, гравировка

sermashaqqat - многотрудный





Amaliy san'at muzeyi

1937-yilda Toshkent shahrida amaliy san'at (hunarmandchilik) muzeyi tashkil qilingan. Muzeyda ekskursiyalar, ko'rgazmalar, xazina, ilmiy metodika bo'limlari, kutubxona (Internet tarmog'iga ulangan) bor.

Muzey xazinasida XIX asrning 1-yarmidan to hozirgi kungacha bo'lgan davrda o'zbekistonlik ustalar tomonidan yaratilgan amaliy san'at durdonalari saqlangan.



Ular 20 nomdagি (kulollik, chinnisozlik, shishasozlik, kashtado‘zlik, do‘ppi, matoga gul bosish, chitgarlik, badiiy mato, milliy kiyim, gilamchilik, yog‘och o‘ymakorligi, naqqoshlik, lokli miniatura, zargarlik, kandakorlik, pichoqchilik va boshqalar) to‘plamda saqlanadi va muzey ekspozitsiyasi ham shu nomlar bo‘yicha namoyish etiladi.





TIIAME



Muzey ilmiy muassasa
sifatida amaliy san'at
bo'yicha keng ko'lamda
tekshirish ishlari olib boradi,
buyumlarni sotib oladi, ilmiy
yoritadi, buklet, kataloglar
nashr etadi, ko'rgazmalar,
ekskursiyalar, ilmiy
anjumanlar uyuştiradi.



TIAAME

Lug‘at

amaliy san’at muzeyi - музей прикладного искусства

durdona - *перен.* что либо отборное, лучшее, жемчужина

kulolchilik - гончарное ремесло


chinnisozlik - фарфоровая промышленность

shishasozlik - стекольная промышленность

kashtado‘zlik - вышивка, вышивание

yog‘och o‘ymakorligi - резьба по дереву

kandakorlik - чеканка по металлу





TIIAME

1-topshiriq. Dialogik matnlarni rus tiliga tarjima qiling.

- Bugun darsdan keyin nima qilmoqchisan?
- Darslardan keyin kutubxonaga boraman, ertaga seminar mashg‘uloti bor, dars tayyorlab bo‘lgach, buvimni ko‘rgani boraman.
- Esizgina, biz shahar aylangani bormoqchimiz, biz bilan borarsan degandik.
- Jon deb borgan bo‘lardim-u, lekin ilojim yo‘q.
- Balki avval biz bilan biroz aylanib, keyin buvingnikiga borarsan.
- Yo‘q, uzr. Shundoq ham dars tayyorlab bo‘lgunimcha ancha vaqt bo‘lib qoladi.
- Boshqa safar birga boramiz.
- Mayli. Buvingga bizdan salom ayt.



TIIAME



- Sen “Cinese-Shou” dasturini ko‘rib borasanmi?
- Ha, albatta. Bu juda qiziq.
- Senga qanday rekordlar yoqadi.
- Men inson kuchi, irodasi hisobida o‘rnatiladigan rekordlarni yoqtiraman. Yaqinda bir rekordni ko‘rsatishdi. Bir kishi qorniga o‘ntadan ko‘p tanganiaylatirdi. Menimcha, bu xavfli, bunaqa rekordlardan o‘zini tiygan ma’qul.
- Menga texnikaga oid rekordlar yoqadi. Tezyurak avtomobillar yaratishga oliy rekordlarga qiziqaman.
- Umuman, hammasi ham qiziq.

- Eshitdingmi? “Quvnoqlar va zukkolar” tanlovida bizning litsey sizniki bilan bellasharkan.
- Unday bo‘lsa, yaxshilab tayyorlaninglar. Bizda aqli, quvnoq va topqir bolalar, qizlar juda ko‘p.
- Bizda ham undaylar yo‘q emas. Mana, sinifdoshim Ahrorbek kulmaganni kuldiradi. Latifa aytsa ichaging uzilib qoladi. Umuman, qobiliyatli bolalar litseyimizda anchagina.
- Bo‘lmasa, hammasini sahnada ko‘rar ekanmiz-da.
- Ha, albatta.



Uy vazifasi. Istalgan mavzuda diaologik matn yozing.



E‘tiboringiz uchun
rahmat!